

ilg'or xorijiy tajriba va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish asosida xavfsiz turizmni ta'minlash faoliyatiga innovasion usul va uslublarni tatbiq etish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Boshqarma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, mamlakatda bo'lib turgan davrda sayyohlar xavfsizligini, transportdan foydalanish va ko'chishlarini ta'minlash bo'yicha turizm sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi va yetib kelgan sayyohlar hisobini yurituvchi davlat va nodavlat tashkilotlarning yagona axborot bazasini shakllantirish rejalashtirilmoqda. Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabzdagi transport infratuzilmalari va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarida plakatlar, belgilar va ko'rsatkichlar o'rnatilmoqda. Mobil ilova sayyohlarni mamlakatimizda bo'lish qoidalari, viza va ro'yxatga olish jarayonlari, diqqatga sazovor manzillar va yo'nalishlar, shuningdek, yaqin ichki ishlar organi tayanch punktlari va tibbiyot muassasalari to'g'risida xabardor qilib turadi. Mazkur mobil ilovada sayyoh huquqni muhofaza qilish organlariga mushkul vaziyatga tushib qolganlik to'g'risida xabar yuborishi yoki o'z mamlakatining konsullik idorasiga murojaat yozishi mumkin. Yashash joyi xavfsizligini ta'minlash, mehmonxonaga joylashish va sayyohlarga xizmat ko'rsatish sohasida har bir mehmonxonada yetib kelgan sayyohlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirishga imkon beruvchi «E-mehmon» elektron axborot tizimi joriy etilmoqda. Mehmonxonalarga kirish joyi kunu tun videokuzatuv ostida bo'ladi. Bundan tashqari, «Xavfsiz turizm» yagona apparat-dasturiy majmuasi joriy etiladi. Bu videokuzatuv, ma'lumotlarni tahlil qilish va avtomat ravishda qayta ishlash, huquqbuzarliklar va hodisalar to'g'risidagi xabarlarini qabul qilish va ro'yxatga olish tizimi hisoblanadi. Turistik diqqatga sazovor maskanlarga tashrif buyurgan sayyohlar va rasmiy xorijiy delegasiyalar xavfsizligini ta'minlash va kechki ko'ngilochar dasturlarni tashkil etish sohasida sayyohlarni individual himoya qilish bo'yicha maxsus texnik vositalarga bo'lgan talablarni ishlab chiqish va o'rnatish ham belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi «Turizm to'g'risida»gi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019-y., 03/19/549/3446-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 06 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 06/21/6196/0240-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.08.2019 yildagi 669-son Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalari tomonidan shartnoma asosida pulli xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash to'g'risidagi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.08.2019-y., 09/19/669/3570-son.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNI ROLI

Melibayeva Gulxon Nazrullaevna

Qo'qon Universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi

e-mail: gulhonmelibaeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning strategik o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalar kabi asosiy yo'nalishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekiston misolida innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi, texnoparklar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari va malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, raqobatbardoshlik, kichik biznes subyekti, texnoparklar, aksiyalar likvidligi, intellektual resurslar, innovatsion jarayon.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению стратегической роли инноваций в повышении конкурентоспособности субъектов предпринимательства. В исследовании анализируется влияние таких ключевых направлений, как продуктовые, процессные,

маркетинговые и организационные инновации, на экономическую эффективность. На примере Узбекистана изучены развитие инновационной инфраструктуры, технопарки, программы финансовой поддержки и процессы подготовки квалифицированных кадров.

Ключевые слова: малый бизнес, конкурентоспособность, субъект малого бизнеса, технопарки, ликвидность акций, интеллектуальные ресурсы, инновационный процесс.

Annotation: This article is dedicated to studying the strategic role of innovations in enhancing the competitiveness of entrepreneurial entities. The research analyzes the economic efficiency of key areas such as product, process, marketing, and organizational innovations. The development of innovation infrastructure, technoparks, financial support programs, and the process of training qualified personnel in Uzbekistan are examined.

Keywords: small business, competitiveness, small business entity, technoparks, stock liquidity, intellectual resources, innovation process

Kirish: Tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va modernizatsiyasida muhim omil hisoblanadi. Globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsiyalar asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Innovatsiyalar kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini samarali qondirish va yangi bozorlarni egallash imkonini beradi. Ushbu maqola tadbirkorlikda innovatsiyalarning o'rni va ular orqali raqobat ustunligini shakllantirish jarayonini o'rganishga bag'ishlangan.

Hozirgi kunda raqobat shunchaki past narxlar yoki yuqori sifat bilan cheklanib qolmay, mijozlar uchun qiymat yaratish va biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishga asoslanmoqda. Innovatsiyalar turli sohalarida, jumladan, texnologiya, mahsulot dizayni, xizmat ko'rsatish, va boshqaruv usullari orqali kompaniyalarning muvaffaqiyat kalitiga aylangan. Xususan, tadbirkorlar yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor javob berish orqali bozorga moslashadi.

Bozorlarning globallashuvi va raqobatning kuchayishi sharoitida dunyoning yetakchi mamlakatlari hukumatlari mamlakatlar iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash uchun murakkab tashkiliy va iqtisodiy vositalardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Bunday vositalardan biri tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarga ega erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) tashkil etishdir. Oxirgi o'n yillikda Erkin iqtisodiy zonalar mexanizmini faollashtirish jarayonini ma'lum bir mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini kuzatish mumkin bo'ldi. Agar 1995 yilda dunyoda 500 ga yaqin zonalar mavjud bo'lsa, hozir 130 dan ortiq mamlakatlarda 4300 dan ortiq zonalar mavjud bo'lib, ularda 68 mingdan ortiq ishchi ishlaydi. Bundan tashqari, jahon amaliyoti EIZ faoliyatini samarali tashkil etish nafaqat mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga turtki berish, balki uni jahon yetakchilari qatoriga olib chiqishda ham samarali ekanligini ko'rsatmoqda [Mamurjonovich.U. 2024].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda an'anaviy jarayonlar bilan birga innovatsion rivojlanish jarayonlariga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligi ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes rivojida o'zgarishlar, ularning innovatsion va raqamlashtirish muhitiga moslashuvchanligi, biznes-jarayonlar va biznesmodellarning o'zgarishi hamda innovatsion va raqamli iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarning ijobiy jihatlarni o'zlashtira olishi kabilar hozirda har qachongidan ham dolzarbdir [Tursunov.I, Hamroev.G.2024].


Innovatsiyalar va raqobatbardoshlik: Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash kompaniyalarga yangi bozorlarni egallash va mavjud segmentlarda ustunlikni qo'lga kiritish imkonini beradi. Masalan, texnologik yangiliklar yordamida xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish orqali raqobatchilardan oldinda bo'lish mumkin. Shu sababli, innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim drayveri hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida dolzarblik: Tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, texnologiyalarni joriy etish va startap ekotizimini rivojlantirish

bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonning global bozor raqobatbardoshligida o'z ulushini oshirish uchun tadbirkorlik subyektlarining innovatsion imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Tadqiqot muammosi: Tadqiqotning asosiy muammosi innovatsiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga joriy etishda duch kelinadigan cheklovlar va ular orqali raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmlarini aniqlashdir. O'zbekiston sharoitida bu boradagi asosiy to'siqlar moliyaviy resurslarning yetishmasligi, malakali kadrlarning cheklanganligi, va innovatsion infratuzilmaning rivojlanmaganligi hisoblanadi.

Innovatsiyalarni bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin: mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalar. Har bir turi tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarning yaratilishi orqali iste'molchilarning talablariga javob beriladi. Masalan, O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati sohasida amalga oshirilgan texnologik yangiliklar iste'molchilarning qoniqish darajasini oshirdi [Dilnoza. M. 2024].



1- rasm. Innovatsiyalar va iqtisodiy o'sish.[muallif tomonidan tuzilgan].

Jarayon innovatsiyalari: Ishlab chiqarish texnologiyalarining modernizatsiyasi orqali resurslar samaradorligi oshadi. Bu turdagi innovatsiyalar ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va korxonalarni global raqobatda ustunlikka ega qiladi [Vaxidov A. 2024].

Marketing innovatsiyalari: Yangi reklama strategiyalari va sotish usullarining joriy etilishi orqali iste'molchilarga mahsulotlarni yetkazib berish samaradorligi oshadi. Masalan, onlayn savdo platformalarining rivojlanishi kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Tashkiliy innovatsiyalar: Korxonalarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu turdagi innovatsiyalar inson resurslaridan foydalanishni optimallashtirishga yordam beradi [Xurramov Sh. 2023].

Innovatsiyalar iqtisodiyotga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

1. **Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish:** Innovatsion texnologiyalar va mahsulotlar eksport hajmini oshirish orqali milliy iqtisodiyotni kuchaytiradi.
2. **Ish o'rinlari yaratish:** Innovatsiyalar yangi biznes tarmoqlarini shakllantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga hissa qo'shadi.
3. **Bozor raqobatini kuchaytirish:** Innovatsiyalar bozor muhitida yangi o'yinchilar paydo bo'lishiga zamin yaratadi, bu esa iste'molchilar uchun yanada sifatli mahsulot va xizmatlar taklif qilinishini ta'minlaydi [Nosirova, S. 2024].

O'zbekistonda so'nggi yillarda innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

– **Texnoparklar va innovatsion markazlar tashkil etilishi:** Bu inshootlar tadbirkorlik subyektlari uchun ilmiy-texnologik yutuqlarni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Xorijiy olim L.K. Tereshenko fikricha, "Innovation infratuzilmaga odatda texnoparklar, biznes-inkubatorlar, elektron birjalar, venchur fondlari va boshqa tuzilmalar kiradi. Innovation infratuzilmaning "ishlashi" zarur, bu innovatsiyalarga bozor "talabi"siz va tegishli qonunchilik bazasisiz amalga oshirilishi qiyin. Innovation faoliyat uchun

infratuzilmani yaratish va ulardan foydalanish masalalari murakkab xarakterga ega bo'lib, ular ko'p jihatdan fan va innovatsiyalar sohasiga, shuningdek, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash sohasiga ta'sir qiladi." [Лафитский.В.И, Терещенко.Л.К, Едкова. Т.А. 2014].

– **Moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari:** Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat va xalqaro tashkilotlarning grantlari ajratilmoqda [Bahridinov. R. 2024].

– **Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar: Yoshlar orasida innovatsion fikrlashni shakllantirish uchun startap loyihalari va biznes-treninglar tashkil etilmoqda.**

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqa usullar qo'llanilgan.

1. Innovatsiyalarning strategik o'rni: Schumpeterning innovatsiyalar nazariyasiga ko'ra, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali tadbirkorlar bozorni o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Porterning raqobat strategiyalari esa innovatsiyalarning xarajatlarni kamaytirish va mahsulotni differensiyalash orqali raqobatbardoshlikka qanday yordam berishini ko'rsatadi [Melibayeva. G. 2024].

2. O'zbekiston sharoitida innovatsiyalar: O'zbekistonda tadbirkorlikda innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligi oshib bormoqda. Biroq, tadbirkorlarning innovatsion faoliyatga qiziqishini oshirish uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar zarur.

3. Kadrlar masalasi: Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda bilimli va tajribali kadrlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda bu boradagi muammolarni hal qilish uchun malakali kadrlar tayyorlash dasturlarini kengaytirish zarur.

O'zbekiston misolida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, texnoparklar, grant dasturlari va ilmiy-tadqiqot markazlarining tashkil etilishi bu borada muhim qadamdir. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali tadbirkorlar nafaqat o'z bizneslarini kengaytiradilar, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham hissa qo'shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamurjonovich, U. T. (2024). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALARNI RAG 'BATLANTIRISHDA KLASSTER YONDASHUVINING O 'RNI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES* 156-167.

2. Tursunov.I, Hamroev. G. (2024). KICHIK VA O'RTA BIZNES BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 69-76.

3. Dilnoza. M. (2024). Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(6).

4. Vaxidov. A. (2024)YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 71-77.

5. Xurramov Sh. (2023). TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O 'RNI. *WORLD OF SCIENCE*, 6(11), 113-117.

6. Shuxratov. S. (2024). O 'ZBEKISTON KICHIK VA O 'RTA KORXONALARIDA TADBIRKORLIK VA INNOVATSIYALARNI RAG 'BATLANTIRISHDA INSON RESURLARINI BOSHQARISH (HR) NING ROLI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 48(3), 85-93.

7. Nosirova, S. (2024). TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY QONUNIYATLARI VA OMILLARI. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 11(1), 132-135.

8. Лафитский, В.И., Терещенко, Л.К., Едкова Т.А. и др.; отв. Ред. Л.К. Терещенко. – М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве РФ: 2014. – 13 с

9. Bahriddinov. R. (2024). O'ZBEKISTONDA MARKAZLASHGAN PUL FOND LARI TOMONIDAN INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNI YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA YECHIMLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 30(3), 102-110.
10. Melibayeva. G. (2024). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH BO'YICHA MARKETING STRATEGIYALARINI QO'LLASH. University Research Base, 284-289.

TURIZMDA TADBIRKORLIK VA TIJORAT FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI

Tuxtasinova Muhayyo Mirzasultonovna

Farg'ona davlat texnika universiteti,
katta o'qituvchi, muhayyotuhtasinova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola turizm tadbirkorlik va tijorat faoliyatini amalga oshirishda duch kelinadigan asosiy muammolarni o'rganadi. Turizm sektori iqtisodiy rivojlanish va ish o'rnlari yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lsada, bu sohada tadbirkorlikni rivojlantirishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Maqolada bozorni tushunmaslik, resurslarning cheklanganligi, huquqiy va xavfsizlik masalalari, infratuzilmaning yetishmasligi hamda marketing va raqobatbardoshlik bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: turizm tadbirkorlik, turizm resurslari, turizm mahsuloti, turizm xizmatlari, gastronomik turizm, sayohat, turizm, turistik infratuzilma, turizm industriyasi.

Abstract: This article examines the main challenges faced by entrepreneurs and businesses in tourism. While the tourism sector is a key driver of economic development and job creation, there are a number of challenges that hinder entrepreneurship in this sector. The article examines market misunderstanding, resource constraints, legal and security issues, infrastructure deficiencies, and marketing and competitiveness challenges. It also suggests solutions to address the challenges.

Keywords: entrepreneurship in tourism, tourism resources, tourism products, tourism services, gastronomic tourism, travel, tourism, tourism infrastructure

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные проблемы, с которыми сталкиваются при осуществлении предпринимательской и коммерческой деятельности в сфере туризма. Хотя сектор туризма важен для экономического развития и создания рабочих мест, существует ряд проблем в развитии предпринимательства в этом секторе. В статье рассматриваются непонимание рынка, ограниченность ресурсов, вопросы законодательства и безопасности, отсутствие инфраструктуры, а также проблемы, связанные с маркетингом и конкурентоспособностью. Также предлагаются варианты решения проблем.

Ключевые слова: предпринимательство в туризме, туристические ресурсы, туристические продукты, туристические услуги, гастрономический туризм, путешествия, туризм, туристическая инфраструктура, туристическая индустрия

Kirish: Turizm sohasida tadbirkorlik va tijorat faoliyati har yili tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Turizm – butun dunyo bo'ylab iqtisodiy rivojlanish va ish o'rnlari yaratishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu sohada tadbirkorlar nafaqat yangi turistik xizmatlar va mahsulotlar yaratish, balki butun bir sohani boshqarish va rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Turizm tadbirkorlikni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud bo'lib, bu muammolar biznesning samarali rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu maqolada